O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2024 - yil 11 - may 165-8-117-Q/24 Termiz tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni hamda viloyat hokimining 2024-yil 03-maydagi 381-8-0-Q/24-sonli qarorining ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni hamda viloyat hokimining 2024-yil 03-maydagi 381-8-0-Q/24-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda– Farmon) hamda viloyat hokimining 2024-yil 03-maydagi 381-8-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Farmon bilan:

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi fan kengashlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Bitiruvchilar kengashining asosiy faoliyat yo‘nalishlari;

2025-2026-yillarda Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida yangidan quriladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning manzilli ro‘yxati;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ta’lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish hamda ulardagi ta’lim sifati natijadorligini oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e’tirof etilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev) bilan birgalikda viloya hokimi qarorining 3-bandida nazarda tutilgan maktab va filiallarning 2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Djurayev tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev) bilan birgalikda qurilish-ta’mirlash ishlari bajarilgan maktab va filiallarni belgilangan muddatlarda zamonaviy o‘quv qurollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mebel va o‘quv laboratoriyalari bilan jihozlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev) viloyat hokimining ushbu qarorining tizimdagi barcha tashkilot va muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**